

## O‘QUVCHILARNI ZARARLI AXBOROT MUHITIDAN HIMOYA QILISHNING PSIXOLOGIK USULLARI

*Maxmudova Gulnora Xudayqulovna*

*Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani 80-maktab psixologi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘quvchilarni zararli axborot muhitidan himoya qilishning psixologik asoslari, axborotning yoshlar ongiga ta’siri hamda profilaktik va korreksion yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, oila, maktab va jamiyatning bu boradagi hamkorligi hamda media madaniyatni shakllantirishning ahamiyati tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** axborot muhiti, media madaniyat, internet xavfsizligi, o‘quvchi, psixologik himoya, media savodxonlik, ijtimoiy tarmoqlar, axborot xavfsizligi, tarbiya, psixologik profilaktika.

### KIRISH

Zamonaviy axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylandi. Axborot olish imkoniyatlarining kengayishi bilan bir qatorda, zararli va salbiy mazmundagi ma’lumotlarning tarqalishi ham kuchaymoqda. Shu sababli o‘quvchilarni zararli axborot muhitidan himoya qilish bugungi ta’lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Zararli axborotlar turli ko‘rinishlarda uchrashi mumkin. Zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi materiallar, yolg‘on ma’lumotlar, axloqiy me’yorlarga zid kontentlar, kiberbulling, internet firibgarligi va turli manipulyativ axborotlar o‘quvchilar psixikasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayniqsa, o‘smirlik davrida shaxsning dunyoqarashi shakllanayotganligi sababli bunday ta’sirlar yanada kuchli namoyon bo‘ladi. OAVning ta’sirini tushuntirishda Bandura tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy o‘rganish nazariyasi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Unga ko‘ra, insonlar axloqiy va ijtimoiy me’yorlarni kuzatish, takrorlash va mustahkamlash orqali o‘zlashtiradi. Bugungi raqamli axborot muhitida esa yoshlar va o‘smirlar virtual makondagi “model shaxslar” — blogerlar, mashhurlar, trend yaratuvchilar orqali ijtimoiy-psixologik identifikatsiyani boshdan kechiradilar. Bu esa real hayotdagi qadriyatlar tizimining o‘zgarishiga olib keladi. Shuningdek, Eli Pariser tomonidan ishlab chiqilgan “filtr pufagi” (filter bubble) nazariyasiga binoan, algoritmik tanlovlar asosida foydalanuvchilarga faqat ularning qiziqishlariga mos axborot uzatiladi. Bu jarayon individning axborot makonini sun’iy ravishda toraytiradi, alternativ fikr va ijtimoiy muvozanatni susaytiradi, natijada shaxs manipulyatsiyalovchi axborot doirasida

doimiy yashashga o'rganib qoladi. Bu esa kritik tafakkur va mustaqil fikrlash jarayonlarini zaiflashtiradi. Ayniqsa, kognitiv dissonans nazariyasi (L. Festinger) asosida OAV tomonidan beriladigan zid axborotlar shaxs ichki psixologik ziddiyat holatiga tushishiga sabab bo'ladi. Bu holatda inson o'z ongini moslashtirish uchun mavjud axborotdan ruhiy qulaylikka mosini tanlaydi, bu esa manipulyatsiyaning bevosita natijasi sifatida qaraladi. Shu bilan birga, zamonaviy sotsiopsixologik yondashuvlar, xususan, U.Lippmanning "jamoatchilik fikrining stereotiplashuvi" g'oyasi ham OAV tomonidan yaratilgan sun'iy ijtimoiy realliklar tasvirini chuqur izohlaydi. OAV inson ongida mavjud bo'lmagan ijtimoiy voqelikni konstruksiyalash orqali individning real hayotga bo'lgan munosabatini yo'naltiradi. Ayniqsa, siyosiy voqealarni yoritishda bu fenomen yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bular ning barchasi OAVning axborot uzatuvchidan ko'ra ongni shakllantiruvchi kuch sifatidagi funksiyasini anglatadi. Mazkur holatda xizmat ko'rsatish va manipulyatsiya o'rtasidagi chiziq nihoyatda nozik va shaffof bo'lib, u ko'proq subyektiv niyat, axloqiy mezonlar va kommunikatsiya kontekstiga bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham, zamonaviy psixologik tadqiqotlarda bu masalani nafaqat axborot texnologiyalari, balki ijtimoiy ong, axloqiy o'zlik va shaxsiy identifikatsiya nuqtai nazaridan yondashgan holda kompleks tahlil qilish zarurati tug'ilmoqda.

Psixologik nuqtai nazardan zararli axborotlar bolalarda xavotir, qo'rquv, agressivlik, ruhiy zo'riqish va emotsional beqarorlikni keltirib chiqarishi mumkin. Doimiy ravishda salbiy axborotlarni qabul qilish natijasida o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchi pasayadi, ijtimoiy munosabatlari yomonlashadi va ta'limga bo'lgan qiziqishi susayadi. O'quvchilarni zararli axborot muhitidan himoya qilishning eng muhim psixologik usullaridan biri media savodxonlikni rivojlantirishdir. Media savodxonlik o'quvchilarga axborotni tanqidiy tahlil qilish, uning ishonchliligini baholash va zararli ma'lumotlarni ajrata olish imkonini beradi. Bu ko'nikma bugungi axborot asrida har bir yosh uchun zarur hisoblanadi.

Ta'lim muassasalarida media madaniyatni shakllantirishga qaratilgan mashg'ulotlar, seminarlar va davra suhbatlarini tashkil etish muhimdir. Bunday tadbirlar orqali o'quvchilar internetdan xavfsiz foydalanish qoidalari, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va kiberxavfsizlik asoslari bilan tanishtiriladi.

Maktab psixologi bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. U o'quvchilarning psixologik holatini o'rganadi, zararli axborot ta'siriga tushib qolgan bolalarni aniqlaydi va ularga psixologik yordam ko'rsatadi. Shuningdek, psixolog o'quvchilar bilan stressni boshqarish, emotsional barqarorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha treninglar o'tkazadi.

Ota-onalarning nazorati va qo'llab-quvvatlashi ham alohida ahamiyatga ega. Ota-onalar farzandlarining internetdan foydalanish madaniyatiga e'tibor qaratishlari,

ular bilan muntazam muloqot qilishlari va virtual muhitdagi xavflar haqida tushuntirish ishlari olib borishlari zarur. Eng muhimi, ota-onalar va farzandlar oʻrtasida ishonchli munosabat boʻlishi kerak. Shuningdek, oʻquvchilarning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etish ham zararli axborotlarning salbiy taʼsirini kamaytiradi. Sport, kitobxonlik, sanʼat va ijodiy mashgʻulotlar yoshlarning ijobiy qiziqishlarini rivojlantirib, ularni salbiy axborot oqimidan uzoqlashtiradi.

Qonuga muvofiq bolalarning sogʻligʻiga zarar yetkazuvchi axborot mahsulotlari jumlasiga quyidagilar kiritildi: bolalarni ularning hayotiga va (yoki) sogʻligʻiga xavf soladigan xatti-harakatlarni sodir etishga, shu jumladan oʻz sogʻligʻiga zarar yetkazishga, oʻz joniga qasd qilishga va shunday harakatlarni targʻib qilishga undaydigan; bolalarda alkogolli va tamaki mahsulotlarini, giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni yoki aql-iroda faoliyatiga taʼsir etuvchi boshqa moddalarni isteʼmol qilish, qimor oʻyinlarida, ommaviy tartibsizliklarda ishtirok etish, fohishalik, darbadarlik, tilanchilik yoki gʻayriijtimoiy xatti-harakatning boshqa shakllari bilan shugʻullanish istagini paydo qiladigan; odamlarga yoki hayvonlarga nisbatan zoʻravonlik va shafqatsizlik qilish mumkinligini asoslaydigan yoki oqlaydigan yoxud zoʻravonlik xatti-harakatlarini amalga oshirishga undaydigan; oilaviy qadriyatlarni inkor etadigan, axloqsizlikni targʻib qiladigan, shuningdek ota-onasiga va oilaning boshqa aʼzolariga nisbatan hurmatsiz munosabatni shakllantiradigan; gʻayriqonuniy xulq-atvorni oqlaydigan va huquqbuzarlik sodir etishga olib keladigan; jamiyatda buzgʻunchilik gʻoyalarini targʻib etishga chaqiradigan; uyatli soʻzlarni oʻz ichiga olgan; pornografiya xususiyatiga ega boʻlgan axborotni oʻz ichiga olgan; shafqatsizlik, jismoniy va (yoki) ruhiy zoʻravonlik, jinoyat yoki jamiyatga qarshi boshqa xatti-harakatlar tasviri yoki bayoni tarzida taqdim etiladigan; bolalarda qoʻrquv, vahima yoki sarosima uygʻotadigan, shu jumladan kuch ishlatilmagan oʻlimni, kasallikni, oʻz joniga qasd qilishni, baxtsiz hodisani, avariyan yoki falokatni va (yoki) ularning oqibatlarini inson qadr-qimmatini kamsitadigan shaklda tasvirlash yoki bayon etish tarzida taqdim etiladigan; erkak va ayol oʻrtasidagi jinsiy munosabatlarni tasvirlash yoki bayon etish tarzida taqdim etiladigan; uyatli soʻzlar jumlasiga kirmaydigan haqoratli soʻzlarni oʻz ichiga olgan axborot mahsuloti.

N.F.Imomov shaxsiy nomulkiy munosabatlarga nisbatan huquqiy taʼsir mexanizmi masalasi boʻyicha doktrinal masala qayta koʻrib chiqilishi lozimligini taʼkidlaydi. X.B.Abduraxmonova esa, globallashtirish jarayonida vujudga kelayotgan yangi shaxsiy nomulkiy huquqlar tizimi konsepsiyasi va ularni himoyalash boʻyicha ustuvor yoʻnalishlarni belgilash maqsadga muvofiqligini aytib, ota-ona va bolalar oʻrtasidagi munosabatlar nafaqat huquqiy, balki diniy axloqiy meʼyorlar bilan ham tartibga solinadi degan fikrni ilgari suradi. N.A.Ashurova, Sh.R.Yuldasheva, F.M.Otaxoʻjaev, X.B.Abduraxmonovalarning taʼkidlashicha, shaxsiy nomulkiy huquqlariga ota-ona huquq va majburiyatlarining tengligi, bolalarning huquq va

manfaatlarini himoyalash, ota-onalik huquqini amalga oshirish, ota-onaning bolalariga ta'lim-tarbiya berishdagi huquq va majburiyatlari kabi huquqlar kiradi. Fikrimizcha, N.F.Imomovning fikriga qo'shilgan holda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanib borayotganligini inobatga olgan holda ota-onaning o'z bolalariga ta'lim-tarbiya berish bilan bog'liq shaxsiy-nomulkiy huquqlarini amalga oshirishda, bolalarning zararli axborot muhitidan himoya qilishning yangicha usul va mehanizmlarini ishlab chiqish zaruriyat hisoblanadi. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga maxsus norma, bolaning yoshiga to'g'ri kelmaydigan, ularning sog'ligi va rivojlanishi uchun zararli bo'lgan ma'lumotlarga kirishini cheklash ota-onalar, farzandlikka oluvchilar vasiylar yoki homiylarning majburiyati sifatida belgilash, internetdagi axborot tahdidlarining oldini olish va bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq xavflarni kamaytiradi. Chunki, bolaning manfaatlarini uning farovonligi uchun shartlar sifatida tushunish kerak. Ushbu kontseptsiyani qonuniylashtirish taklif yetiladi, Chunki u voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlarini ustuvor himoya qilish tamoyiliga mos keladi. Bolani tarbiyalash va rivojlantirish bo'yicha majburiyatlarni to'g'ri bajarish deganda: voyaga yetmagan bolaning xatti-harakatlarini nazorat qilish tushunilishi kerak. zararli ma'lumotlarni iste'mol qilishni cheklash, ota-onalarning bolaning faoliyatidan xabardorligi; uning aloqalari, Internet va boshqa axborot manbalaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarni zararli axborot muhitidan himoya qilish kompleks yondashuvni talab etadi. Media savodxonlikni rivojlantirish, psixologik profilaktika ishlari, ota-onalar nazorati va ta'lim muassasalarining hamkorligi yoshlarni axborot tahdidlaridan himoya qilishning eng samarali yo'llaridan biridir. Bu esa sog'lom fikrlaydigan, ma'naviy barkamol va axborot madaniyatiga ega avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Nishonova Z.T. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
3. Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2020.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent, 2019.
5. Shoumarov G'.B. Psixologik xizmat asoslari. – Toshkent, 2018.
6. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers.
7. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.